

Bajarilishi ikki yilga mo'ljallangan amaliy loyihalar mavzusi

“Tibbiyot fanlari” yo‘nalishi

№	Amaliy loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
	Protez moslamalari va reabilitatsiya vositalarini ishlab chiqarishda titan qotishmalari asosida implantatsiya qilinadigan tibbiy mahsulotlar yuzasida biyomoshuvchan/bioaktiv qoplamalarni olish texnologiyasini yaratish 	Tadqiqotning shakli: Amaliy. Ilmiy-tadqiqot natijalari: - protez moslamalari va reabilitatsiya vositalarini ishlab chiqarish maqsadida Ti6Al4V titan qotishmasi yuzasida 5-10 nm aniqlikda qalinligi 50 nanometrgacha bo'lgan kaltsiy fosfat qoplamalarini atom qatlamli o'stirish (ALD) usulida hosil qilinadi; - gidroksiapatit kaltsiy qatlamlarini hosil qilish uchun yarim tayyor mahsulot yaratiladi; - yarim tayyor mahsulotdan foydalangan holda Ti6Al4V titan qotishmasi yuzasida gidroksiapatit kaltsiy qatlami hosil qilinadi; - gidroksiapatit kaltsiy va kaltsiy fosfat qoplamalarini ishlab chiqaruvchi MChJlar bilan hamkorlikda nogironligi bo'lgan shaxslar uchun implantlar yaratiladi; - hosil qilingan gidroksiapatit kaltsiy va kaltsiy fosfat qoplamalarini toksiklik va sensabilizatsiya ta'sirchanligi o'rganiladi; - gidroksiapatit kaltsiy va kaltsiy fosfat bilan qoplangan implantlarni quyon va sichqonlarda in vivo usulida suyak bilan kirishuvchanligi va biyomoshuvchanligini o'rganiladi. - nogironligi bo'lgan shaxslar uchun protez moslamalari va reabilitatsiya vositalariga gidroksiapatit kaltsiy va kaltsiy fosfat bilan qoplangan implantlar ishlab chiqiladi. Natijalarni sinovdan o'tkazish: Tadqiqot natijalari Ijtimoiy himoya milliy agentligi huzuridagi Nogironligi bo'lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va protezlash milliy markazida sinovlardan o'tkaziladi. Ilmiy natijalarni chop etish: Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi. Izoh: Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Fanlar akademiyasining qo'llab-quvvatlash xati mavjud bo'lganida qabul qilinadi.